UO‘K 811.512.133

“TA’M” KONTSEPTINING LINGVOMADANIY-SINKRETIK XUSUSIYATLARI

G.A. Teshaboyeva

Maqolada o‘zbek tilshunosligida maza-ta’mning milliy lingvomadaniy xususiyatlari, shuningdek, sinkretik tabiati yoritilgan. Maza-ta’m ifodalovchi achchiq, shirin, nordon, sho‘r leksemalarining badiiy matnlarda ko‘pma’nolilik, metaforik xususiyatlarga ega ekanligi tahlillar orqali ochib berilgan. Maza-ta’m bildiruvchi leksemalarning matn tarkibidagi ma’nodan boshqa ma’noga ko‘chishi, matnga boshqacha mazmun berishi izohlangan.

Kalit so‘zlar: *kognitivlik, pragmatika, sinkretizm, ko‘pma’nolilik, metafora, denotativ, konnotativ, omonimiya*.

В статье освещены национальные лингвокультурные особенности вкуса в узбекском языкознании, а также его синкретический характер. В результате анализа выявлено, что в художественных текстах лексемы горький, сладкий, кислый, соленый, выражающие вкус, обладают многозначностью и метафорическими свойствами. Поясняется, что лексемы, обозначающие вкус, переходят в тексте из одного значения в другое и придают тексту иное значение.

Ключевые слова: *когнитивность, прагматика, синкретизм, многозначность, метафора, денотатив, коннотатив, омонимия.*

Milliy ong, milliy tafakkurning o‘ziga xosligi qadimiydir. Har bir millat yaralgandan buyon uning tafakkuri muayyan tarzda rivojlanadi. Milliy ongni anglash uning rivojlanish xususiyatlari olimlarning ko‘plab tadqiqotlarida ta’kidlangan. Tafakkurning milliyligi haqida so‘z borganda har bir millatning lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Gap shundaki, milliy tafakkurni o‘rganish til bilan uzviy bog‘liq lingvomadaniy hodisa hisoblanadi. Shu bilan birga, milliylik tabiat va jamiyatdagi turli voqea-hodisalarning voqelanishini milliy tafakkur asosida tushunadi, xulosa chiqaradi. Shu qatorda “Ta’m” konsepti ham lingvomadaniy hodisa sifatida milliy tafakkur orqali namoyon bo‘ladigan kognitivlikka egadir. “Ta’m”ning ma’no tomonlari har bir millatning milliy tafakkuri bilan bog‘liq lingvomadaniylikni ifodalaydi. Albatta, milliy tafakkur orqali ta’m sezgilarda o‘z ifodasini topadi. Demak, “Ta’m” konsepti lingvistik tushuncha sifatida kognitiv mentallikni ifodalaydi va turli ma’no ottenkalari bilan bog‘liq namoyon bo‘ladi. Bu haqda tilshunos D.Xudoyberganova shunday yozadi: “Ma’lumki, kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslikda konsept tushunchasi markaziy o‘rinni egallaydi. Kognitiv tilshunoslikda unga “inson ongining mental va ruhiy imkoniyatlari, uning bilimi va tajribasini aks ettiruvchi axborot tizimi birligi, lingvomadaniyatshunoslikda mentallik xususiyatiga hamda lisoniy ifodaga ega bo‘lgan, etnomadaniy o‘ziga xoslik bilan ajralib turuvchi jamoa ongi birligi” sifatida ta’rif beriladi” [1. B. 25].

Rus, fransuz, ingliz va boshqa xalqlarning ta’mga bo‘lgan munosabatlari lingvomadaniy jihatdan tahlil etilishi jarayonida ulardagi o‘zaro farqlanish kuzatiladi. Tahlillarda “ta’m” konsepti bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va bo‘lmagan xalqlarning oshxonalarida ta’mni idrok etish va sezgilaridagi lingvistik o‘xshash va farqlanuvchanlik xususiyatlari ko‘rsatiladi. Gap shundaki, ta’mni idrok etish va tavsifini beruvchi so‘zlar miqdori boshqa persepsiyalar miqdoridan ancha kam [2]. Yuqorida ta’kidlanganidek, “ta’m” konseptining tildagi ifodasi sifat bilan bog‘liqligini reprezentatorlar ma’qullaydilar, bu ifoda to‘rtta verbal: *shirin, nordon*, *sho‘r* va *achchiq* sifat leksemalarining monomantal belgilari bilan inson tomonidan farqlanadi. A.S.Shramm tomonidan qo‘llanilgan “sezgi organlarining idrokka ta’sir etishi” perseptiv empirik termini miqdor jihatdan sifatlardagi – perseptiv sema doirasidan tashqari chiqadi. Bir qator asliy sifatlar, jumladan, ba’zi nisbiy sifatlarda *nordon eritma, shirin qalampir* haqidagi ma’lumotlar uchraydi [3. B. 13].

Ma’lumki, bilishning empirik va ratsionallik xususiyatlari sifatlarda ham aks etadi. Ular o‘rtasidagi belgi bildirish xususiyatlari xiralashgan bo‘lib, o‘rganish jarayonida ochila boriladi. Empirik sifat semalari baholashni o‘ziga birlashtiradi: ba’zan ratsional (masalan, achchiqroq, taxirroq), ko‘pincha emotsional (sinestetik bo‘lmagan metaforalar, masalan, shirin lahzalar singari). Ular, shuningdek, qiyoslash orqali sintetik (mazali – juda mazali) va analitik (juda mazali – o‘ta (eng) mazali) shakllariga ega bo‘lishi mumkin

[3. B. 33]. Empirik sifatlar ma'nosi qanchalik mavhum bo'lsa, shunchalik ratsional sifatlar semantikasiga yaqin bo'ladi (masalan, lazzatli, xushbo'y).

"Empirik sifatlarni asosiy muhim "etalon"i va boshqa sezgilar tomonidan qabul qilingan suybektiv-obyektiv xususiyatlarga ega bo'lgan" mos nuqtaga" bog'lash suhbatdoshlarga u yoki bu me'yor nimani anglatishni tushunish imkonini beradi" [4. B. 256]. Aytish mumkinki, bir ijtimoiy jamiyatda va turli etnik guruhlarda yashagan insonlarning ta'm sezgisi bir-biridan farq qiladi. Biroq ma'lum nuqtalarda o'zaro kesishgan joylari ham mavjud bo'lib, millatlararo lingvomadaniyatda o'z aksini topadi.

Bilamizki, ta'm tushunchasi har bir millatning oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishi bilan bog'liq tug'ma ehtiyoji orqali o'lchanadi. Shuning uchun ham olimlar ta'm haqida fikr yuritganlarida insondagi milliy va ligvomadaniy xususiyatlarga e'tibor qaratadilar. Bu jarayonni kuzatgan olimlardan biri A.I.Kostyayev shunday yozadi: "Olimlarning ta'mga bo'lgan qarashlari insonlarning rivojlanish evolyutsiyasi jarayonida oziq-ovqat mahsulotlariga estetik munosabatlari bilan belgilanadi" [5. B. 7]. Darhaqiqat, insonlarning ta'm bilishi jamiyat taraqqiyoti, ongni yuksak darajada bilish darajasining rivoji natijasida yuz berdi. Ta'm insoniyat paydo bo'lgandan buyon mavjudligi adabiyotlarda qayd etib kelinadi. Chunki ta'm insoniyatga ona suti orqali kirgan, sutning ta'm-mazasi inson tafakkuri mahsuli hisoblanadi. Ona suti ta'midan lazzatlanish inson tafakkurining fikr-qudratini to'yintirish hisoblanadi. Ma'lum bo'ladiki, inson tomonidan ta'mning idrok etilishi har bir millatning milliyligi bilan bog'liq holda yuz beradi. Tildagi "ta'm" konseptining ifodalanishi esa milliy oshxonalarning yuzaga kelishi va ularning o'ziga xosligi, individual xususiyatlari asosida ma'lum ta'mni idrok etishi bilan bog'lanadi. Ta'm bildiruvchi sifatlar hayotiy tushunchalar bilan bog'lanadi va boshqa tillar qatori turkiy, jumladan, o'zbek tili lug'at qatlamida qadimdan joy olganligi bilan xarakterlanadi. M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ta'm bilan bog'liq so'zlarning turli ma'no ifodalashi ochib berilgan.M.Koshg'ariy ta'm ifodalashni: *ачïg'* –achchiq; *ǯkshik* – (ta'mli) nordon – chuchuk; *sÿchik* – har bir shirin narsa; *usïttï* – tashna qildi, chanqatdi (sho'r so'ziga ishora) so'zlari orqali turkiy tillarda ifodalanishini yoritib beradi [6. B. 80, 94, 106, 109, 130, 137, 175, 216, 345, 386]. Bu so'zlar hozirga qadar ham ayrim turkiy tillarda saqlanib qolgan. Qayd etilgan so'zlar, turkiy xalqlarning o'ziga xos bo'lgan sezgilari tarixan shakllangan, ichki o'ziga xos ma'no ifodalash jihatidan imkon kengligi haqidagi ma'lumotni beradi. Albatta, muayyan etnik guruhga xos bo'lgan ta'mni idrok etish jarayoni ham o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi. Masalan, turk tilida *tat(di*) – totli, mazali; *tatli* – *şekerli çay* – shakarli choy; *ekşi* –nordon; tuzlu – sho'r singari ajralib turadi. Qirg'iz tilida ham ta'mni bildiruvchi sifatlar *daam, татык* sifatida ifodalanadi.Ta'm bilan bog'liq sifatlar boshqa turkiy tillardagi singari kamchil so'zlar qatoriga kiradi. Qirg'iz tilida *mammyy* – *shirin*; кычкыл – nordon; аччу – achchiq; туздуу, *музу бар, шордуу* –*sho'r* sifatlari orqali ifodalanadi. M.Koshg'ariy "Devoni"da keltirilgan sifatlar har ikki turk va qirg'iz tillarida asosan saqlanib qolgani bilan xarakterlidir. Keltirilgan sifatlar denotativ ma'nosidan tashqari, konnotativ va pragmatik ma'nolarda qo'llana oladi hamda o'sha tillarning lingvomadaniyati talqinida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shunday qilib, turkiy tillarda, jumladan, boshqa tillarda ham "Ta'm" konsepti lingvistik umumiy belgini ifodalaydi. Har qanday tillarda ta'mni ifodalovchi denotativ ma'no bilan polisemantik ma'noni idrok etish so'z, so'z birikmasi, frazeologik birlik va matnda lingvistik yorqinlikni yuzaga chiqaradi. Bu lingvistik haqiqatni ochib berishni *shirin, achchiq, sho'r* va *nordon* leksemalarining denotativ va konnotativ ma'nolari misolida o'rganamiz. *Shirin* leksemasi turkiy va boshqa tillarda fonetik jihatdan turlicha talaffuz etilsa-da, uni idrok etish qonuniyatlari bir xil. Masalan, o'zbek, turk, qirg'iz tillaridagi ta'm ifodalanishi o'zbek tilida *shirin, chuchuk*; turk tilida tat(di) – totli, mazali; qirg'iz tilida *tattuu, shirin* shakllarida beriladi. Shunday bo'lsa-da, har uchala millat vakillari shirin leksemasining ma'nosini bir xil idrok etadilar. Ya'ni *shirin* leksemasini ular *asal* va *shakar* ta'miga o'xshashligini his etadilar. Ana shu xususiyat orqali *shirin* leksemasini baholaydilar. Albatta, o'xshatish etalonlari turli xalqlar hayoti va madaniyatidagi umumiy jihatlarni ham ifoda etadi. Masalan, "shirinlik" belgisi rus, ukrain, ingliz, mo'g'ul, hind, o'zbek, turk, qozoq, qirg'iz va boshqa bir qancha tillarda shakar, qand etalonlari orqali ta'kidlanadi [7. B. 8]. Shuni ta'kidlash joizki, *shirin* leksemasini idrok etish umumiylik bilan xususiylik tamoyillari asosida keng ochiladi. Chunki o'zbek, turk va qirg'iz tillarida *shirin* leksemasining denotativ va konnotativ ma'nolari milliy mentalitet bilan bog'lanadi. Masalan, *shirin ichimlik, shirin nok, shirin baliq, shirin osh, shirin jon, shirin lahzalar, shirin hayot* birikmalari polisemantik xususiyatlarga ega hisoblanadi va ma'no jihatidan o'zaro farqlanadi.

Ta'm ifodalovchi hodisalarni tavsiflovchi sifatlarning yagona tasnifi mavjud emas. Sifatlar semasiologik va onomasiologik tamoyillar asosida bir guruhga birlashtirilishi mumkin. Bu guruhga ta'm bildiruvchi sezgi sifatlari hamda shu bilan bir qatorda, ta'm sezgisini ifodalovchi sifatlar kiradi [8. B. 294]. Sezish tizimida ta'm o'ziga xos alohida markazni tashkil etadi. Unda ko'rish (ishtahani ochuvchi shashlik), tegi-

nish (tandir somsa), hid (ishtahani ochuvchi tandirda pishirilgan go‘sht), eshitish (ta’m ifodalovchi musiqa) kabi idrok komponentlarining o‘zaro kesishuvi yuz beradi. Ta’m kategoriyasi yuqorida aytib o‘tilgandek, hissiyot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘zida verbal xususiyatlarni yorqin namoyish etadi. Bunday xususiyatga asal oyi (yangi turmush qurgan yoshlar sayohati), ozor berish (qattiq ranjish), ko‘ngil sovish (achchiq umidsizlik, ixlos qaytish) singari sevgi, muhabbat to‘g‘risidagi verballashuv kiradi.

O‘zbek tilida ham “ta’m” lingvomadaniy konsept darajasidagi tushuncha bo‘lib, o‘ziga xos ma’nolar bilan farqlanuvchanlikka ega hisoblanadi. O‘zbeklar ham o‘zlarining milliy oshxonalarida milliylik xususiyatlari, didi va sezgilari orqali ta’mga bo‘lgan o‘zgacha idrok etishni namoyon etadi. Albatta, o‘zbeklardagi ta’m bilan bog‘liq idrok etish turkiy xalqlar bilan bog‘liq. Chunki ta’mni anglash ham turkiy xalqlarning qadimiy o‘tmishi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini yuqorida aytib o‘tdik. Turkiy xalqlardagi ta’mni idrok etishda so‘zlarning bir-biriga o‘xshashligi va fonetik farqlanishi fikrimizning isboti bo‘ladi. Demak, *ta’m* ifodalovchi leksemalarning tarixiy rivojlanishi o‘zbek tili milliy lingvomadaniyati-ning uzoq tarixi bilan uzviy bog‘lanadi. Bu jihatdan shirin, achchiq, nordon, sho‘r leksemalari o‘zbek tili lug‘at boyligida ham polisemantikligi bilan ajralib turadi.

Shirin leksemasining konnotativ xususiyatlarini shartli ravishda alohida semalarga ajratib ko‘rsatish mumkin. O‘zbek tilida shirin leksemasining denotativ ma’nosidan ko‘ra konnotativ semalari ko‘proq darajada aks etadi. *Shirin* leksemasining konnotativ ma’nolari og‘zaki va badiiy nutqda keng foydalaniladi.

So‘zlarning ma’no taraqqiyotida ularning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi muhim omillardan biridir. Xususan, metafora ko‘pma’nolilikni yuzaga keltiruvchi eng faol hodisa ekanligi tilshunoslikda e’tirof etilgan [9. B. 19]. Aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan *achchiq, nordon, sho‘r* leksemalari kabi *shirin* leksemasida ham metaforik ko‘pma’nolilik voqelanadi. Quyida keltirilgan misollarda *shirin* leksemasining turli konnotativ semalari namoyon bo‘ladi.

Ammo uning yomon tomonlarini qancha bo‘rttirib eslamay, u men uchun aziz bo‘lib qolganiga, hamma qiliqlari, gaplari ***shirin, yoqimli*** *ekaniga ishondim* (O‘.Umarbekov). Xonaga ko‘tarilib, karovatga o‘zimni tashladimu, dong qotdim, necha kunlardan beri bunchalik ***qattiq*** va ***shirin*** *uxlamagan* edim (O‘.Umarbekov). Bu payt yana o‘sha xonimcha kirib keldi. Tag‘in ***shirin tabassum*** bilan” chiken”, deydi (O‘.Hoshimov). Chunki raqib bilan dildorning uyi orqasida tanho olishmoq, yor oyog‘i ostida qonlik tuproqqa qorishmoq uning uchun juda ***lazzatlik*** va shoirona tuyila boshlag‘an edi. Saroyga kirar ekan o‘ziga: - ***Shirin o‘lim***, - deb qo‘ydi (A.Qodiriy). Yoki:

Yillar o‘tib, yoshiga monand
O‘zgaradi har bitta inson.
Bolalikda shirin bo‘lsa qand,
Qariganda shirin bo‘lar jon*... (E.Vohidov)*

Keltirilgan gaplarda *shirin* leksemasi *ta’m* ma’nosida emas inson ijtimoiy hayotining turli vaziyatlarida paydo bo‘lgan his-tuyg‘ularini aks ettiradi. Birinchi gapdagi gaplari *shirin, yoqimli*, ikkinchi gapdagi *qattiq va shirin uxlamagan* edim, uchinchi gapdagi *shirin tabassum* va to‘rtinchi gapdagi *shirin o‘lim* kabi so‘z, so‘z birikmalari insonni quvontiruvchi, shodlik tuyg‘usini beruvchi semalardan iborat sinestetik metafora semantik birligidan tashkil topadi. She’riy ifodadagi *shirin bo‘lsa qand* va *shirin bo‘lar jon* birikmalarida *shirin* va *qand* uzual ma’noni ifodalab to‘g‘ridan-to‘g‘ri *ta’m* belgisini anglatadi. Biroq *shirin bo‘lar jon* birikmasi metaforik ma’noni bildirib, jonning inson uchun aziz, yashash uchun hayot quvvati, hayot bulog‘i semalarini o‘ziga birlashtiradi va semantik sinkretizmni voqelantiradi. N.Mahmudov shunday yozadi: “Sinestetik metafora voqelanar ekan, ko‘pincha so‘zlar mazmunining konkretlikdan abstraktlik tomon siljishi, undagi, masalan, moddiy tushunchaning yo‘qolishi, ya’ni nomoddiylashuvi natijasida yuzaga keladigan badiiy-estetik ta’kid, ekspressiv-emotsionallik kuchli bo‘ladi. Farqli sezgilararo ko‘chim yoki sezgi-tuyg‘ularining hamkorligi natijasida ifodalangan ohorli shakl va mazmunning mag‘zini chaqishga kirishgan badiiy did butun o‘quvchi, avvalo, bu ohorli ifodadan uzun huzur tuyadi, mazkur mag‘izni qo‘lga kiritgach, bir huzur ikki bo‘ladi” [7. B. 8]. O‘z ona tilida so‘zlashuvchilar nutqlarida ta’m tizimida ijobiy va salbiy his-tuyg‘ularining tasvirini berish yoki his-tuyg‘ularini yanada yorqinroq emotsional tarzda ifodalashni istaydilar [10. B. 125]. Darhaqiqat, yuqorida keltirilgan gaplari *shirin, yoqimli, qattiq* va *shirin uxlamoq, shirin tabassum, shirin o‘lim, shirin jon* birikmalari o‘zbek milliy tafakkuri mahsuli hisoblanadi. Anglashiladiki, keltirilgan leksemalarda konnotatsiya mavjud bo‘lib gaplari *shirin, yoqimli* (ma’noli, ma’noga boy), *qattiq va shirin uxlamoq* (tinch, osuda), *shirin tabassum* (yoqimli, muloyim), *shirin o‘lim* bu birikmada *shirin* leksemasi insonning bu dunyoda aziz bo‘lgan jonini (muhabbati, oriyati, erlik sha’ni yo‘lida) qurbon qilish, shirin bo‘lar jon (hayotni sevish, umrni qadrlash, o‘zini ehtiyotlash) semalariga ishora qiladi. *Shirin o‘lim* birikmasi okkazional birlik hisoblanib, yozuvchining ijod mahsulidir.

A.Nurmonov ta’kidlaganidek: “Har bir leksemadagi sinfga xos bo‘lgan umumiy sema birlashtiruvchi, bir integralsema ostiga birlashgan har bir leksemaning boshqasidan farqlab turuvchi o‘ziga xos xususiy semalar farqlovchi semalar sanaladi. Xususan, asal leksemasining semik tuzilishini umumiydan xususiyga qarab tobe munosabat asosida quyidagi semalarga ajratish mumkin: 1) predmet (grammatik sema), 2) “narsa” (leksik-grammatik sema), 3) suyuqlik (kategorial leksik sema), 4) quyuq, 5) shirin, 6) asallar hosilasi. Ayrim leksemalarda potensial semalar ham uchraydiki, bunday semalar nutqiy jarayonda leksemaning ikkilamchi semantik vazifasi orqali yuzaga chiqadi. Masalan, asalning “yoqimlilik” (masalan, asal bola) semasi ko‘chma ma’no orqali ifodalanadi” [11. B. 125]. Shuningdek, O‘TILda o‘zbek tilidagi chuchuk leksemasining *shirin* ma’nosidagi denotativ va konnotativ ma’nolari izohlanadi: ***Chuchuk.*** 1 Achchiq emas, nordon emas; shirin. Chuchuk olma. Chuchuk anor. **2 ko‘chma**. Kishiga ozor bermaydigan; yoqimli, ko‘ngilli, shirin. *Bir achchiqning bir chuchugi bor* (Maqol) [12. B. 518]. Demak, keltirilgan gaplarda *shirin* integral semaning differensiasiyalashuvi mazmuniy sinkretizmda voqelanadi, ya’ni bu leksema ko‘p ma’noliligi bilan har bir gapda turli ma’nolarni o‘zida birlashtira olish xususiyatiga egadir. Xalq shoiri Erkin Vohidovning “Jon shirinmi, qand shirin”, “Shirin”, Farid Usmonning “Shirinliging shakarliging” she’rlari hamda A.Nurmonovning “So‘z shirin, o‘zi shirin” maqolasida *shirin* leksemasining konnotativ ma’nolari mohirona yoritib berilgan. Shunday qilib, *shirin* leksemasi bir shaklda bir qancha ma’nolar bera olishi bilan o‘zbek milliy lingvomadaniyatida o‘ziga xos semantik sinkretizmni ifodalaydi.

Ta’m me’yorlari yuqorida ta’kidlaganimizdek, bir-biridan farqlanadi. Farqlanish xususiyatlarini tahlil etish lingvomadaniyatshunoslikning tadqiqot obyekti sanaladi. Masalan, rus tili vakillari uchun *achchiq* leksemasiga *shuvoq* etalon bo‘lsa, litvaliklar uchun *qalampir*, inglizlar uchun esa *apelsin* qobig‘i qahva cho‘kindisi hisoblanadi. [13. B. 518]. Turkiy tillar, xususan, o‘zbek tilida *achchiq* leksemasi etaloni *achimoq* fe’lining o‘zagi *achi* bo‘lib, bu haqida “Qadimgi turkiy lug‘at” (“Древнетюркский словарь”)da *achi, achchimoq, achigan* barcha narsaga nisbatan qo‘llanilgan va bu leksemaning ko‘p ma’noliligi haqida ma’lumotlar berilgan [14. B. 4]. Fikrimizcha, keyinchalik qalampirga nisbatan *achchiq* sifati qo‘llana boshlangan.

O‘zbek millatida ham “achchiq” makrokonseptining o‘ziga xos tuzilishi mavjud bo‘lib, tilda sifat bilan ifodalanadi va *ta’m* bildiruvchi integral (denotativ – o‘ziga xos o‘tkir, tilni achchitadigan, lovillatadigan) sema va differensial (*ta’m* etaloni ta’mdagi shiddatli o‘sish, sezgi organlariga qattiq ta’sir qiladigan yoqimsizlik va boshqa) semalar voqelanadi. Bu voqelanish *shirin* leksemasiga zidlik asosida belgilanadi. *Shirin* leksemasi biologik nuqtayi nazardan inson sezgi organlaridagi og‘iz orqali *yoqimli, xushbo‘y, mazali* semalarining ta’mini anglatadi. *Achchiq* leksemasida esa buning ziddi bo‘lgan *ta’m* og‘iz – tilni achitadigan, lovillatadigan, jonni achitadigan semalarini ifodalaydi. Og‘zaki va yozma nutqda bu ta’mning denotativ va konnotativ ma’nolari o‘zining to‘liq ma’no ifodasini ko‘rsata oladi. Bu komponent tahlilda yanada ochiqroq aks etadi. Komponent tahlil nazariyasisiz metaforaga yondashish metaforani sof nutqiy, tasodifiy hodisa sifatida ko‘rsatadi. Biroq nutqiy hodisalarning hammasida ham lisoniy asoslar mavjud va mana shu asoslarni biz komponent tahlil etish natijasida qo‘lga kiritamiz. Metaforik ma’no nutqiy hosila bo‘lsa-da, u lisoniy: imkoniyat va qonuniyatlarga tayanadi [15. B. 7].

Ta’m ifodalovchi *achchiq* leksemasining denotativ ma’nolari:

- ta’m nomlanishi: *achchiq choy, achchiq sho‘rva, achchiq moy*;
- o‘simlik nomi(ot): *achchiq qalampir, achchiq gilos, achchiq ko‘kat*;
- oziq-ovqat, ichimlik, suyuqliklar: *achchiq mastava, achchiq qahva, achchiq suv.*

Shuni ta’kidlash joizki, bunday denotativ semalar o‘zbek tilida faollashgan va otga xos ma’noni anglatadi. Demak, *achchiq* leksemasi otlarga bog‘lanadi. Ot bilan bog‘langan achchiqning konnotativ ma’nosi o‘zi bog‘langan otdagi implitsit (yashirin) ma’noni yuzaga chiqaradi. Albatta, bu matn tarkibida yanada ochiq yuzaga chiqadi. *Achchiq* leksemasining konnotativ ma’nosi ot leksemalar bilan bog‘langan holda turli ma’no munosabatlarini voqelantiradi. Masalan***, Achchiq izg‘irin*** *esib, qor uchqunlanib turgach, bu badqavoq kunda Shaybonixon Murg‘ob bo‘yiga Shoh Ismoil Safaviyni taqib etib borgan edi* (P.Qodirov). *Hamma achchiq narsalarni totib ko‘rdim. Lekin odamlarga muhtoj bo‘lishdan ko‘ra achchiqroq narsani topamadim (Abdulloh Ibn Shadod). Hayotning* ***achchiq qismati*** *Mohiruyning gulday umrini xazon qilgan edi, qaddini bukkan yashashdan bezitgan edi (Sh.I). To‘lanboy otasining* ***achchiq tanbeh****idan o‘ziga keldi, o‘z kelajagi haqida o‘ylashga majbur ekanligini his etdi* (Xalq so‘zi). ***Achchiq sovuq*** *Kamolni badan-badanidan o‘tib ketgan edi* (R.Muxtorov). Keltirilgan gaplardagi *achchiq izg‘irin, achchiq qismat, achchiq tanbeh, achchiq sovuq* birikmalarida matn tarkibida achchiq leksemasi bog‘langan otning ma’nosini kengaytiradi va turli konnotativ semalarda namoyon bo‘ladi.

*Yaxshidir achchiq haqiqat, lek shirin **yolg‘on** yomon*

*Shu shirin **yolg‘on**ga doim aldanib qolg‘on yomon.* (E.Vohidov)

Keltirilgan misralarda *achchiq* va *shirin* leksemalarining zidlanishi kuzatiladi. Bu misralarda insonning hayot tajribalari bilan bog‘liq ruhiy olami manzarasi achchiq-shirin qarama-qarshiligi asosida beriladi. Ya’ni inson hayotidagi aldamchi hislar, ko‘ngilga ozor beradigan tuyg‘ular – shirin yolg‘onga aldanib qolish katta xato bo‘lishi, ikkinchi tomondan, achchiq bo‘lsa ham, haqiqat undan ustunligi ta’kidlanadi. Shuningdek, xalq maqollarida *achchiq* va *shirin* leksemalarining metaforik ma’nolaridagi zidlanish aks etadi. Masalan: *Achchiq til – zahri ilon, Chuchuk tilga – jon qurbon* (Xalq maqoli). Keltirilgan maqolda *achchiq* til birikmasi insonga tegishli bo‘lgan so‘z *ilon zahri* singari inson qalbiga bitmas og‘riq, azob berishi, *chuchuk til* birikmasida *shirin so‘z* insoniyatga – barchaga kuch-quvvat, orom baxsh etishi anglashiladi. Demak, maqolda *achchiq til* va *chuchuk til* birikmalari implitsit(yashirin) ma’no ifodalab sinkretizmni yuzaga chiqarmoqda. *Gulbadan sag‘risiga **achchiq qamchi** bosdi*. Ot elday uchdi (Sh.Bo‘tayev). Bu gapda *achchiq qamchi* birikmasidagi *achchiq* leksemasi *qattiq, kuchli, ayamay, jonidan o‘tkazib* semalarini ifodalab kelmoqda.

*Birinchi qarashdayoq kutkan ishining to‘g‘rilig‘ig‘a inondi va osiylar kabi ko‘zini yerga tikdi. Ul Kumushdan itbomiz so‘zlar, **achchig‘ xitoblar** kutar; birinchi itbodayoq ota-ona gunohiga taba qilishg‘a hozirlanar edi* (A.Qodiriy). Keltirilgan matnda *achchig‘ xitoblar* birikmasida *achchig‘* leksemasi ko‘ngilsiz, tanbeh, ozor beruvchi semalari orqali ochiladi. Ko‘rinadiki, *achchig‘* leksemasining xitob leksemasi bilan birikuvi asosida otaning o‘g‘liga bo‘lgan dashnomi, qattiq murojaati semalarining ma’nosi aniqlashadi.

“Har bir leksemaning ma’noviy mundarijasida birlashtiruvchi va farqlovchi semalar mavjud bo‘ladi. Birlashtiruvchi sema asosida leksema muayyan paradigmadan joy oladi, farqlovchi sema asosida esa bir paradigmaga birlashgan a’zolari bir-biridan farqlanadi” [16. B. 9].

O‘zbek tili leksikasida va badiiy matnlarda “sho‘r” leksemasi kam uchraydi. O‘TIL da *tuz* leksemasi namak bilan ifodalanadi [17. B. 4]. O‘rganish jarayonida sifatning *sho‘r* bilan bog‘liqligi asliy sifatga xos bo‘lgan denotativ sema *tuz*da aks etadi. Umumiy *tuz* semasi orqali denotativ semalar o‘tkir tuzli ta’mga ega bo‘lish, tabiatdan tarkibida *sho‘r* (tuzli ta’m)ni aks etishi hisoblanadi. Gap shundaki, “tuz tarkibidagi tuz” semasi tatib bo‘lmaydigan moddalarni tasvirlashda ifoda etiladi va bu faol qo‘llanadi. Masalan, otlarga bog‘lanib, *sho‘r suv* – dengiz suviga nisbatan, *sho‘r tuproq* – ekin ekib bo‘lmaydigan tuproq ma’nolarini ifodalaydi. “Tuz” konsepti doirasida denotativ ma’no ifodalash sifat+ot tipidagi birikmalarda ifodalanishi kuzatiladi. Ayonki, insonga tuz iste’mol qilish me’yoriy hisoblanadi. Ana shu me’yorga ko‘ra tuzning ortiq yoki kamligi belgisi obyekt bilan bog‘liq holda aks etadi. Obyektdagi tuzning ortiq yoki kamligi subyektga ta’siri orqali voqelanadi. Masalan, tuzlangan va tuz orqali sifati buzilmaydigan uzoq muddat saqlanuvchi oziq-ovqat mahsulotlari: tuzlangan bodring, karam, go‘sht, pomidor va hokazo. Keltirilgan misollarda tuz uzual (denotativ) ma’noni ifodalab, insonning ta’mga bo‘lgan munosabati ortiq yoki kamlik belgisida namoyon bo‘ladi.

Sh.Rahmatullayev *tuz* leksemasiga shunday munosabat bildiradi: Ko‘pma’nolilik ma’no taraqqiyotini semik tahlil usuli bilan o‘rganish bu jarayonni ravshanroq tasavvur qilish imkonini beradi. Bunday yondashuvni **tuz-1** leksemasi asosida namoyish qilamiz.

Tuz-1 leksemasining bosh leksik ma’nosi *ovqatga tuz sol* kabi bog‘lanishda namoyon bo‘ladi [18. B. 66]. Tilshunos *tuz* leksemasining semik tahlili jarayonida ko‘p ma’nolilik belgisining beshta mazmuniy semalarini ko‘rsatib beradi (Biz bu o‘rinda olim tomonidan aytilgan fikrlarni qaytarmadik)[18. B. 66].

Ma’lum bo‘ladiki, *tuz* leksemasi ko‘pma’nolilik xususiyatga ega bo‘lib, inson nutqiy faoliyatida turli konnotativ ifodalarning ko‘chma ma’nolarda aks etishi kuzatiladi. Masalan, *tuzi past odam* – ahmoq, be’mani, tarbiyasiz ma’nosida, *tuzini yemoq (ichmoq)* – kimsa tomonidan boshqa insonga berilgan taom, yedirib-ichirish, to‘ydirish va hokazo.

Albatta, badiiy matnlarda *tuz* leksemasining ko‘chma ma’noda qo‘llanish hollari tahlil jarayonida ochila boradi: Masalan, – *Sen bizga xiyonat qilding‘, it uvli! Anvar bosh irg‘atdi. – Iqrorman. Tuzimni unitding‘! – Tonmayman*.(A.Qodiriy) keltirilgan *tuzimni unutding‘* birikmasida *tuz* leksemasi bergan oshnonim, ko‘rsatgan saxovatim ma’nolarini ifodalab, mazmuniy sinkretizmni voqelantirmoqda. Shuningdek, *Odamgarchilikni ham bilmadi bu **tuz** ko‘r qilgur!* (A.Qodiriy). *Tuz ko‘r qilgur* iborasida odamiylik yuzasidan yaxshilik qilgan biroq bu yaxshilik yomonlik bilan qaytarilishiga urg‘u beriladi.

Tuz leksemasi yuqorida aytilgandek, *sho‘r* semasi orqali ifodalanadi. *Sho‘r* leksemasiga O‘TILda quyidagi izoh beriladi: “**Sho‘r 1** [f.-tuzli, tuzi ko‘p]. 1 Me’yoridan ortiq tuz solingan, ta’mi o‘tkir (ovqat, taom haqida)” [19. B. 11]. Berilgan izoh *sho‘r* leksemasining denotativ ma’nosi hisoblanadi. Izohli lug‘atda *sho‘r* leksemasining ikkinchi konnotativ ma’nolari shunday izohlanadi: “**Sho‘r** [f. – iztirob, g‘alayon;

tug‘yon, jo‘shqinlik, ehtiros]. 1. folk. Toleyi past, baxtsiz, bechora; sho‘rlik. 2. Azob-uqubat, kulfat, baxtsizlik” [17. B. 12]. Ma’lum bo‘ladiki, ta’m ma’nosini anglatuvchi *sho‘r* leksemasi metaforik ma’noni ham anglatadi. Ma’no ko‘chishi inson idroki, his-tuyg‘usi bilan bog‘liq eng faol qo‘llanuvchi leksemalarda ko‘rinadi. Masalan, **ta’m** – his-tuyg‘u (shirin tuyg‘ular); majoziy-ta’m (nordon fiziogonomiya); **ta’m** – mavhum tushuncha (mazali suhbat); **ta’m** – qiyinchilik, xo‘rlik (sho‘r peshona, sho‘r tumshuq) va hokazo. Inson tafakkurining mahsuli bo‘lgan bunday metaforalarning yaratilishi o‘ziga xos, muayyan insonning ruhiy holatlari asosida voqelanadi. Metaforik ma’no denotativ ma’no semalari va qo‘shimcha ma’no semalari asosida yaratiladi. Qo‘shimcha ma’no hosil qilish qonuniyati va usuli birdan amal qiladi. Ma’lumki, so‘zning ma’nosi nutqiy hosilalar – so‘z birikmalari va gaplar tarkibida voqelanadi. Shunga ko‘ra, to‘g‘ri (uzual) qo‘llanishda leksemaning bizning ongimizdagi ma’noviy qurilishi va voqelanishdagi ma’nosi semalar jihatidan mutanosib bo‘ladi [17. B. 8]. Shuning uchun ham og‘zaki va yozma nutqimizda *sho‘r* leksemasi o‘zining uzual ma’nosidan tashqari ko‘plab metaforik ma’no semalarini tashiydi. Masalan, *Siz qayerda bo‘lsangiz, biz ham o‘sha yerda bo‘lamiz. Oftobda sherikchilikda qatiq ichgan odamlar oxirigacha birga bo‘lishi kerak. Bo‘lmasa* ***sho‘rimizga sho‘rva to‘kiladi****, - dedi Odil Egamberdiyev* (B.Rahmonov). Keltirilgan matnda *sho‘rimizga sho‘rva to‘kiladi* iborasi baxtsizlikka yo‘liqmoq, xarob bo‘lmoq [20. B. 289] ma’nolarida kelmoqda.

Meni qayoqlarga olib kelib tashladingiz?..Tikkaygan daraxt. Suv daraxt yo‘q. Suvi allaqayoqda, ham bemaza, iliq. Uh ***sho‘rim*** qursin *mening*! (Oybek). Ushbu matndagi *sho‘rim qursin* iborasi ko‘proq ayollar nutqida faol ishlatilishi bois *evoh, afsus, attang* semalari orqali subyektdagi kuchli hissiyot tasvirini beradi.

Insof bilan gapirganda, Yormat aka, bizga o‘xshash xizmatkorlarning ***sho‘ri quridi*** (Oybek). Ushbu matnda *sho‘ri quridi* iborasi katta baxtsizlikka yo‘liqmoq, xarob bo‘lmoq, yashashi og‘irlashmoq semalarini ifodalaydi.

Ma’lum bo‘ladiki, yuqorida keltirilgan matnlar tarkibida kelgan sifat+ot, sifat+fe’l tipidagi birikma va iboralar semantikasida denotativ va konnotativ semalarning qayta taqsimlanishi natijasida denotativ semaning neytrallashuvi, desemantizatsiya yuzaga kelishi, bevosita uzual ma’no yo‘qolishi va yangi konnotativ ma’no yuz berganini kuzatishimiz mumkin.

O‘rganilayotgan *nordon* leksemasi asosan oziq-ovqat mahsulotlari, ko‘pincha, mevalarga nisbatan qo‘llaniladi. Inson sezgi a’zolari orqali ta’mdagi shirin va achchiqlikni me’yoriga nisbatan idrok etishi nordonlik semasida ko‘riladi. Chunki insonning sezgi organlari (og‘iz, til) nordon ta’mni shirinlik va achchiqlik belgisiga nisbatan aniqlaydi. Masalan, *nordon anor, nordon nok, nordon olxo‘ri* singari. O‘TIL da *nordon* leksemasi shunday izohlanadi: “*Nordon* [f. – anor; quritilgan anor donasi; anor suvi]. 1. Tishni qamashtiruvchi, og‘izni burishtiruvchi (maza); achchiq. Nordon anor, nordon uzum. Ikkinchi ko‘chma ma’nosi *nordon gap* (yoki so‘z muomala)” [17. B. 59]. ***Nordon gap****ni eshitish Ahrorga erish tuyuldi, chunki u ota-onasidan bunday qo‘pol so‘zlar eshitmay katta bo‘lgan edi.* (R.Muxtorov) *Mahvash* ***nordon muhabbat*** *ta’mini totidi, hayotini bir nogiron yigitga bog‘lashdan cho‘chimadi* (T.Ashurov). Keltirilgan har ikki matnda *nordon* leksemasida *achchiq* ma’nosi ifodalanmaydi. Birinchi gapda, inson his-tuyg‘ulariga qattiq botadigan, ko‘ngil og‘ritadigan konnotativ sema ma’nolarini anglatadi. Shuningdek, keyingi gapdagi *nordon muhabbat* birikmasida esa insonning sevgi yo‘lidagi og‘riqli, qiyin, sinovli semalari orqali ochiladi.

Anordagi nordonlikning ta’mining mavjudligi, fikrimizcha, *nordon* leksemasining etaloni bo‘lishi mumkin. Chunki *nordon* leksemasidagi *nor* Alisher Navoiy asarlari izohli lug‘atida ikki ma’noda 1) ma’no ko‘pligi niyron va niron shu’la, o‘t, olov. 2) ma’no *anor* yoki *nor* o‘zagi asosida *noranj* 1) apelsinning bir turi; 2) sariq beriladi) [21. B. 208]. Fikrimizcha, yuqoridagi anor va apelsin ta’midagi nordonlik belgilari *nordon* leksemasidagi ko‘p ma’nolilik uchun asos bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Anglashiladiki, *nordon* leksemasining konnotativ ma’nosi matn tarkibida yashirin ma’nolarni ifodalay oladi va mazmuniy sinkretiklikni voqelantiradi.

Keltirilgan tahlillardan ko‘rinadiki, o‘zbek tilida *shirin, achchiq, sho‘r, nordon* leksemalarining sinkretik ma’no ifodalovchi tabiati keng bo‘lib, pragmatik, kognitiv, omonimik, polisemik, konnotativlik ma’no xususiyatlari orqali nutqimizda ifodalanish imkoniyatlari juda keng.

Adabiyotlar:

1. *Худойберганова Д.* Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – 41 б.

2. *Моисеева С.А*. Семантическое поле глаголов восприятия в запанно-романских языках. – Белгород: Изд-во БелГУ, 2005. – 206 с.

3. *Гутова Н.В*. Семантический синкретизм вкусовых и оязательных прилагательных в языке и художественном тексте: Дисс …канд. филол. наук. – Новосибирск, 2005. – 220 с.

4. *Лаенко Л.В*. Перцептивный признак как объект номинации: Дисс...д-ра. филол. наук.: – Воронеж, 2005. – 465 с.

5. *Костяев А.И*. Вкусовые метафоры и образы в культуре. – Москва: Изд-во URSS, 2007. – 155 с.

6. *Кошғарий М*. Девону луғотит турк. III жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1960. – 500 б.

7. *Маҳмудов Н*. Метафора ва унинг лингвопоэтик имкониятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2023. – № 4. – Б. 3–12.

8. *Марзякова А.Х*. Структура семантического поля «вкус» во французском, испанском и итальянском языках // В кн.: Романские языки в прошлом и настоящем. Сборник статей к 80-летию профессора Тамары Александровны Репиной. – Санкт-Петербург, 2007. – С. 294–302.

9. *Худойберганова Д*. Тил. Тафаккур. Маданият. – Тошкент: Nodirabegim, 2020. – 120 б.

10. *Макарова О.В.* Лингвокогнитивный аспект высказываний, репрезентирующих фрейм вкусав современном русском языке: Дисс... канд. филол. наук. – Барнаул, 2007. – 212 с.

11. *Нурмонов А*. Танланган асарлар. III жилдлик. 3-жилд. –Тошкент: Akademnashr, 2012. – 376 б.

12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. /А.Мадвалиев таҳрири остида. V жилдлик. 4-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 606 с.

13. *Лечицкая Ж.В.* Прилагательные вкуса в современном русском языке (в аспектноминации): Дисс… канд. филол .наук. – Москва,1985. – 216 с.

14. Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – 715 с.

15.*Қобулжонова Г.К.* Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. номз. дисс... автореферати. – Тошкент, 2000. – 23 б.

16. *Қобулова У.С.* Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семаларн муносабати (Ўзбек халқ топишмоқлари мисолида) Филол. фан. номз. дисс... автореферати. – Тошкент, 2007. – 24 б.

17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. /А.Мадвалиев таҳрири остида. V жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 687 с.

18. *Раҳматуллаев Ш*. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010. – 298 б.

19. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. /А.Мадвалиев таҳрири остида. V жилдлик. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 591 с.

20. *Раҳматуллаев Ш.* Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. – 379 б.

21. Навоий асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1998. – 374 б.

LINGUISTIC SYNCRETIC CHARACTERISTICS OF THE “TASTE” CONCEPT

Gulnoza A. Teshaboeva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 1(77) 58-66.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: cognitive, pragmatics, syncretism, ambiguity, metaphor, denotative, connotative, homonymy.

The article highlights the national linguistic and cultural features of taste in Uzbek linguistics, as well as the syncretic nature. It was revealed through analysis that bitter, sweet, sour, salty lexemes expressing taste have ambiguous and metaphorical properties in artistic texts. It is explained that lexemes denoting taste move from one meaning to another in the text and give a different meaning to the text.

The study of national thinking is a linguistic and cultural phenomenon inextricably linked with language. At the same time, national identity understands the occurrence of various events in nature and society on the basis of national thinking, draws conclusions. At the same time, the concept of “Taste” as a linguistic and cultural phenomenon has a cognitive character that is manifested through national thinking. The specific meaning aspects of “taste” represent the linguistic culture associated with the national thinking of each nation. Of

course, through national thinking, taste finds its expression in senses. The concept of “taste” as a linguistic concept appears in connection with various shades of meaning.

It is known that the empiric and rational features of knowledge are also reflected in qualities. The distinguishing features between them are blurred and revealed in the process of learning. Empiric adjectives incorporate evaluations: sometimes rational (eg, bitterer, purer), often emotional (non-synesthetic metaphors, such as sweet moments). They can also have synthetic (tasty-very tasty) and analytical (very tasty - extremely (most) tasty) forms by comparison [4. B. 33].

In fact, people’s sense of taste happened as a result of the development of society, the development of a high level of consciousness. Avallo, taste has been recorded in literature since the beginning of mankind. Because taste entered humanity through mother’s milk, the taste of milk is a product of human thought. To enjoy the taste of mother’s milk is to saturate the human mind with the power of thought.

It is known that the perception of taste by a person depends on the nationality of each nation. It is understood that the expression of the concept of “taste” in the language is connected with the emergence of national cuisines and the perception of a certain taste based on their uniqueness and individual characteristics. Adjectives denoting taste are associated with vital concepts and are characterized by the fact that they have been in the vocabulary of Turkic, including Uzbek, for a long time.

It can be seen from the above analysis that in the national spirituality of the Uzbek language, the syncretic nature of sweet, bitter, salty, and sour lexemes expressing meaning is wide, and it shows that there are wide possibilities of expression in our speech through pragmatic, cognitive, homonymic, polysemic, connotative meaning features.

References:

1. Hudoyberganova, D. (2015) *Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati* [A brief explanatory dictionary of linguistic and cultural terms]. Tashkent: Turon zamin ziyo.

2. Moiseeva, S.A. (2005) Semanticheskoe pole glagolov vospriyatiya v zapanno – romanskih yazykah [Semantic field of verbs of perception in Zapano-Romance languages]. Belgorod: Izdatel’stvo BelGu.

3. Gutova, N.V. (2005) Semanticheskij sinkretizm vkusovyh i oyazatel’nyh prilagatel’nyh v yazyke i hudozhestvennom tekste [Semantic syncretism of gustatory and obligatory adjectives in language and literary text]. The Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Novosibirsk.

4. Laenko, L.V. (2005) *Perceptivnyj priznak kak ob”ekt nominacii* [Perceptual feature as an object of nomination]. The Dissertation for the Doctor of Philological Sciences. Voronezh.

5. Kostyaev, A.I. (2007) *Vkusovye metafory i obrazy v kul’ture* [Taste metaphors and images in culture]. Moscow: Izdatel’stvo URSS.

6. Koshg‘ariy, M. (1960) *Devonu lug‘otit turk* [Divani lugat at-turk]. In 3 volumes. Vol.1. Tashkent: Fan.

7. Mahmudov, N. (2023) Metafora va uning lingvopoetik imkoniyatlari [Metaphor and its linguopoetic possibilities]. *O‘zbek tili va adabiyoti*. No 4. B. 3-12.

8. Marzyakova, A.H. (2007) Struktura semanticheskogo polya «vkus» vo francuzskom, ispanskom i ital’yanskom yazykah [Structure of the semantic field “taste” in French, Spanish and Italian]. In: Romanskie yazyki v proshlom i nastoyashchem [Romance languages in the past and present]. Collection of articles for the 80th anniversary of Professor Tamara Aleksandrovna Repina. Sankt-Peterburg. Pp. 294-302.

9. Xudoyberganova, D. (2020) *Til. Tafakkur. Madaniyat*. [Language. Thinking. Culture]. Tashkent: Nodirabegim.

10. Makarova, O.V. (2007) Lingvokognitivnyj aspekt vyskazyvanij, reprezentiruyushchih frejm vkusav sovremennom russkom yazyke [Linguistic and cognitive aspect of statements representing the frame of taste in modern Russian]. The Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Barnaul.

11. Nurmonov A. Nurmonov, A. (2012) *Tanlangan asarlar* [Selected works]. In 3 volumes. Vol.3. Tashkent: Akademnashr.

12. Madvaliev, A. (ed.) (2006) *O‘zbek tilining izohli lug‘ati* [Explanatory dictionary of the Uzbek language]. In 5 volumes. Vol. 4. Tashkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

13. Lechickaya, Zh.V. (1985) Prilagatel’nye vkusa v sovremennom russkom yazyke (v aspektnominacii) [Adjectives of taste in modern Russian (in aspect nomination)]. The Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Moscow.

14. (1969) Drevnetyurkskij slovar’ [Ancient Turkic dictionary]. Leningrad: Nauka.

15. Qobuljonova, G.K. (2000) Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini [Systematic Linguistic Interpretation of Metaphor]. Abstract of Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Tashkent.

16. Qobulova, U.S. (2007) Metaforik matnda integral va differencial semalarn munosabati (O‘zbek xalq topishmoqlari misolida) [The relation of integral and differential symbols in a metaphorical text (In the example of Uzbek folk riddles)]. Abstract of Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Tashkent.

17. Madvaliev, A. (ed.) (2007) *O‘zbek tilining izohli lug‘ati* [Explanatory dictionary of the Uzbek language]. In 5 volumes. Vol. 3. Tashkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

18. Rahmatullaev, Sh. (2010) *Hozirgi adabiy o‘zbek tili* [Modern literary Uzbek language]. Tashkent: Mumtoz so‘z.

19. Madvaliev, A. (ed.) (2008) *O‘zbek tilining izohli lug‘ati* [Explanatory dictionary of the Uzbek language]. In 5 volumes. Vol. 5. Tashkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

20. Rahmatullaev, Sh. (1992) *O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati* [Phraseological dictionary of the Uzbek language]. Tashkent: Qomuslar bosh tahririyati.

21. (1998) *Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at* [A brief dictionary of Navoi’s works]. Tashkent: Fan.

Muallif haqida ma’lumot:

TESHABOYEVA Gulnoza Alimjonovna – Andijon davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi. E-mail: gulnozaxon289@gmail.com